

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING  
KASBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Xasanov Axadjon Tursinovich

*PhD, dotsent*ORCID ID [0000-0001-9376-3303](https://orcid.org/0000-0001-9376-3303)

Irmatov Dilyorbek Yunusbekovich

*o'qituvchi,**Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya** Maqolada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislar hisoblangan talabalarining kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida o'quv jarayoniga qo'llanilgan blok-modul tizimini o'quv kurslari bo'yicha samaradorligi isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** *dastur, jismoniy sifatlar, blok-modul tizimi, mezotsikl, mikrotsikl, dastur, parametrlar, blok, bazaviy sifatlar.*

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimining muhim vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda tez o'zgaruvchan va doimiy yangiliklarni kiritib borish zaruriyati mutaxassislarni tayyorlash jarayoni yangi innovatsiyalarni joriy qilish va ular asosida yuqori darajadagi kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bunday tayyorgarliksiz mutaxassislar ish amaliyoti samarali kechmasligi isbot talab qilmaydi.

Aytish mumkinki, egallanayotgan kasb uchun muhim bo'lgan harakat, sifatlarining ustuvor rivojlanishiga quyidagi vazifalarni hal etish bilan erishiladi:

- harakat malakalarini, kasbiy vazifalarning tuzilmaviy elementlarini shakllantirish hamda takomillashtirish;

- kasbga xos muhim jismoniy sifatlarni takomillashtirish.

Kasbiy bilimlar, amaliy sifatlarni tarbiyalashda, birinchi galda, talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini zarurligi va maqsadlarini tushunishlari asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Amaliy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu holat tanlash muammosining jiddiyligini ta'kidlaydi, ya'ni zarur malakalardan qaysi biri ushbu soha mutaxassisining kasbiy faoliyatidagi yetarlicha barqaror qiymatga ega, qaysi amaliy harakatlar esa o'zlashtirish jarayonida o'zgartirilishi mumkin.

Bo'lajak kasb xususiyati ko'p jihatdan talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi mazmunini belgilab berishi aniqlandi. Bunda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik vositalarini to'g'ri tanlab olish va qo'llash uchun mutaxassisning oldinda turgan ishi jarayonidagi jismoniy yuklama darajasi to'g'risidagi bilimlari kerak bo'ladi.

Bizga O'zbekistonimiz mustaqilligini mustahkamlash kabi mas'uliyatli davrda yashash nasib etdi. Istiqloldek, buyuk ne'matning qadriga yetadigan, uni mustahkamlaydigan, o'z qadr-

qimmatini biladigan, zarur bo'lsa jonini fido qilib uni himoya qila oladigan sog'lom avlodni tarbiyalash, faqat ta'lim muassasalari tizimining vazifasi emasligini hisobga olsak, chaqiruv yoshidagilarni vatan himoyasiga tayyorlash vazifasini hal qiluvchi mutaxassislarning harbiy, kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini yo'lga qo'yish va uni takomillashtirish, hozirgi kunga kelib muhim ahamiyat kasb etadi va mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshlang'ich harbiy ta'lim berish bo'yicha mutaxassis tayyorlashning mazmuni, vositalari, nazariy bilim va amaliy malakalarining hajmi va o'quv tarbiya jarayonidagi foydalaniladigan uslubiyotlarining o'ziga xosligi kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni yo'lga qo'yishda, asosan bazaviy jismoniy tarbiya jarayoni qonuniyatlariga mos ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich harbiy ta'lim mutaxassis kadrlarini tayyorlashga oid maxsus adabiyotlarning tahlili natijalariga asoslanib, aytilish mumkinki, soha mutaxassislarning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligining mazmuni va boshqa yo'nalish o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy-amaliy tayyorgarligidan mazmun-mohiyatiga ko'ra nisbatan farqlanadi va o'z navbatida ularni tayyorlash jarayoni xususiyatini e'tiborga olib ayrim tuzatishlar qilishni taqozo etadi.

Harbiy dala mashqlari, harbiy texnik, taktik, jismoniy tayyorgarlikka oid nazariy bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish ta'limning an'anaviy usullariga alohida yondashuv lozimligi talabini qo'yadi.

Kuzatishlarimiz orqali soha mutaxassisini tayyorlashning ko'p yillik jarayonida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik asosan qat'iy va qisman reglamentlashtirilgan, faoliyatni faoliyatga ulash (aylanib mashqlanish) kabi mashq metodlaridan amalda foydalanilayotganligini guvohi bo'ldik. Bu uslubiyotlar orqali asosiy e'tibor bo'lajak jangchining jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bilimlarni egallashga qaratilmoqda. Haqiqatdan ham tarixan harbiy mutaxassisning yoki ayrim olingan jangchining jangovorligi asosan uning kuchi, tezligi, chidamliligi, chaqqonligi bilan baholangan. Chunki jangda natija ko'proq muskul zo'riqishi orqali sarflagan energiya (quvvati)ga bog'liq bo'lgan. Hozirgi kun sharoitining jang olib borish jarayoni esa oldingilardan farqlanadi.

Harbiy ta'lim o'qituvchisi bo'lajak jangchiga jang uchun zarur bo'lgan texnika vositalari bilan muomala qilish malakasidan tashqari unga yarasha ruhiy, fiziologiya, biomexanika va boshqa fanlarga oid bilimlarni berishi lozim bo'ladi.

Harbiy qurollarning ko'pi yuqori darajadagi diqqat, operativ xotira, sensomotor koordinatsiya, gipoksiya sharoitida turli operatsiyalarni bajarishni talab qilishini e'tiborga olsak, bo'lajak mutaxassisga mazmuni, bilim va malakalar hajmi kengaygan maxsus harbiy-kasbiy jismoniy tayyorgarlikni berish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun bitiruvchi kurs talabalarining kasbiy jismoniy tayyorgarligiga oid bilimlariga katta talablar qo'yilmoqda. Bunday talablar va normalar respublikamiz Qurolli Kuchlari harbiy jismoniy tayyorgarlik normalariga yaqin bo'lishi kerak.

Tadqiqotlarimiz davomida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik darajasini Farg'ona davlat universitetining harbiy fakultetini bitiruvchi kurslaridagi holatini o'rganib, kasbiy-jismoniy tayyorgarlik bazaviy jismoniy tarbiya asosidagina olib borilayotganligi, mashg'ulotlar bir tomonlama jismoniy tayyorgarlikka olib kelayotganligini ko'rdik. Bitiruvchilarni jismoniy tayyorgarligini baholaganimizda ularning ichidan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha harbiy qurolli

kuchlar nizomi normalarini “a’lo”ga bajarganlari juda kamchilikni tashkil qilishiga guvoh bo’ldik (1-jadval).

**Harbiy ta’lim fakulteti bitiruvchilarining harbiy jismoniy tayyorgarlik bo’yicha talab va normalarni bajarishining ishonchiligi (%)**

1-jadval

Mashqlar	Talabalarni bajarilishi			
	A’lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqars iz
100m.ga yugurish	-	16,7	45,8	37,5
3000 m.ga yugurish	-	-	8,3	91,7
Turnikda tortilish	4,2	41,7	49,9	4,2

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, talabalar yuqori kursga o’tgan sari ularning jismoniy tayyorgarligi salbiy tomonga o’zgarimoqda. Bu o’z navbatida bitiruvchilarni jismoniy tayyorgarlik mashg’ulotlariga faol - ijobiy munosabatlari bilan bog’liqligini va bu bog’liqlik salbiy tomonga o’zgarganligini ko’rsatdi (2-jadval).

**Talaba-yoshlarni jismoniy madaniyat - sport faoliyatiga faol ijobiy munosabati (%)**

2-jadval

Jismoniy madaniyat - sport faolligini ko’rsatkichlari	O’qish yillari davomida	Bitiruvchi kursda
Jismoniy tayyorgarlik bilan shug’ullanganlar	98,6	24,2
Alohida meyorlarni topshirganlar	53,7	12,8
Meyorni bajarganlar	33,9	8,8
Sport bilan shug’ullanganlar	78,8	30,8
Sport turi bo’yicha razryadlarni bajarganlar	21,7	7,8

Bunday holatning sababi bo’ljak chaqiriqqacha boshlang’ich harbiy ta’lim o’qituvchilarini bitiruv oldi (III-IV) kurslarida jismoniy tayyorgarlik uchun majburiy akademik darslar, sport turlari bilan shug’ullanish mashg’ulotlarining boshqa shakllari ixtisoslikning namunaviy o’quv rejalari va dasturlariga kiritilmaganligida deb hisoblaymiz. Bu o’z navbatida Respublikada kadrlar tayyorlashni milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, gumanitar oliy o’quv



yurtlarida o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga yangi innovatsion pedagogik dasturlar va texnologiyalarini kiritishni taqozo etadi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari «Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik» o'quv fanini o'rganish jarayonida nazariy hamda amaliy bilimlarning shakllanish qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishlari kerak.

Blok - modulli o'qitish o'zi bilan kasbiy faoliyatning turli harakatlari bo'yicha metodik boshqarish va o'ziga axborot ma'lumotlarini kirituvchi, unga taklif qilingan dastur bilan mustaqil ishlashga layoqatni o'rgatuvchi pedagogik texnologiya jarayonini nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlar tadqiqot maqsadini aniqlab olish imkonini beradi, ya'ni gumanitar ta'lim muassasalarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlik (kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik) dasturini tajribada asoslab berishni nazarda tutadi.

Umumiy va maxsus vazifalarni hal etish yo'li orqali oldinga qo'yilgan maqsadga erishiladi, bu yerda kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlikning umumiy vazifalari obyektiv vazifalardan kelib chiqadi va talabalarning kasbiy faoliyatiga hamda jismoniy xolatiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

Kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlikning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- zarur jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish;
- ushbu kasbdagi maxsus harakat malakalari va ko'nikmalarini egallash;
- jismoniy rivojlanish, harakat tayyorgarligi, organizmning noqulay mintaqaviy omillar ta'siriga nisbatan bardoshlilik darajasini oshirish hamda sog'liqni mustahkamlash.

Talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatini e'tiborga olgan holda shakllantirilgan maxsus vazifalarga quyidagilar kiradi:

- yuksak darajadagi jismoniy rivojlanishni, organizmning funksional holatini va harakat tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan vazifalar;
- keyingi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan vazifalar.

Aytib o'tilgan vazifalar o'quv jarayonida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan talabalarning kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslangan blokli tizimi asosida hal etiladi.

Gumanitar oliy o'quv yurtlarining harbiy ta'lim fakulteti I-II bosqich talabalarining tajribada asoslangan kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlik ta'lim jarayoni quyidagicha bo'ladi:

Birinchi blok - umumiy chidamlilikni rivojlantirish - shu blokka ajratilgan umumiy vaqt hajmiga nisbatan 70%. Davomiyligi - 2 oy yoki 8 haftalik mikrotsikl.

Ikkinchi blok - kuch va kuch chidamliligini rivojlantirish - shu blokka ajratilgan umumiy vaqt hajmiga nisbatan 70%. Davomiyligi - 1 oy yoki 4 haftalik mikrotsikl.

Uchinchi blok - tezkorlik, tezlik sifatlarini rivojlantirish - shu blokka ajratilgan umumiy vaqt hajmiga nisbatan 80%. Davomiyligi - 1,5 oy yoki 8 haftalik mikrotsikl.

To'rtinchi blok - harakat koordinatsiyasini va chaqqonlikni rivojlantirish - shu blokka ajratilgan umumiy vaqt hajmiga nisbatan 70%. Davomiyligi - 1,5 oy yoki 6 haftalik mikrotsikl.

Harbiy ta'lim fakulteti III- IV talabalarining kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

- zarur kasbiy-amaliy jismoniy qobiliyatlarni chuqur rivojlantirish;

- harbiy tayyorgarlik vositalarini egallab olishga yordam beruvchi harakat ko'nikmalarini tarbiyalash va takomillashtirish;

- kasbiy malakalarning barqaror mustahkamligini ta'minlash.

III va IV bosqich talabarlari uchun asosan sport-amaliy jismoniy tayyorgarlikdan foydalanildi. U bitta sport turida chuqur ixtisoslashishga emas, balki keng qamrovli kasbiy-amaliy ko'nikmalar hamda malakalarni, shuningdek, har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishni ta'minlovchi har tomonlama sport tayyorgarligiga asoslanadi.

Birinchi blok-mezotsikl (to'ldiruvchi, maxsus-tayyorgarlik) bazaviy sifatlarni (aerob chidamlilik va maksimal kuch) rivojlantirishga, texnikaning bazaviy elementlarini egallab olishga yo'naltirilgan.

Ikkinchi blok - mezotsikl (o'zgartiruvchi, maxsus - tayyorgarlik) talabalarning kuch chidamliligini rivojlantirishga, texnik-taktik tayyorgarliklari darajasini oshirishga yo'naltirilgan.

Uchinchi blok - mezotsikl (amalga oshiruvchi) bevosita tuzilmaviy - jangovar tayyorgarlik, o'quv - jangovar amaliyoti sharoitlarida maxsus ish qobiliyatini oshirish hamda namoyon qilish uchun mo'ljallangan.

Ushbu sifatlarning rivojlanishidagi optimal nisbatlar turli xildagi harbiy faoliyatda yuksak ish qobiliyatini ta'minlaydi. Blok mezotsikllarining aniq davomiyliigi va izchilligi bitta yuklamadan ustuvor foydalanishdan boshqasidan jadal foydalanishga silliq o'tishni nazarda tutadi.

Qiyosiy pedagogik tajriba natijalarining ko'rsatishicha, ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga joriy qilingan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik dasturiga asosan mashg'ulotlarni ikkita yillik sikl shaklida olib borish maqsadga muvofiq. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda to'rtta blokdan iborat, umumiy chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan blokli-modulli tizim qo'llanildi, uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda uchta blokdan iborat (to'ldiruvchi, o'zgartiruvchi va amalga oshiruvchi mezotsikllar) blokli tizim joriy qilindi va u pedagogik tajriba davomida sinovdan o'tkazildi hamda uning yuqori samaradorligi isbotlandi.

Dastlabki tajriba tadqiqotlari davomida olingan natijalar asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi barcha bosqich talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarliklari bo'yicha baholash meyorlari ishlab chiqildi va ulardan oliy ta'lim muassasalari tizimidagi maxsus fakultetlarda ta'lim bosqichlari bo'yicha talabalarning harakat tayyorgarligini baholash uchun foydalanish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Doktrinasini to'g'risida" gi Qonuni. -Toshkent sh., 2018 yil 9 yanvar, 458-son.
3. Khasanov A. T. et al. Identification Of Forms And Means Of Physical Activity During Military Of Students Of Military Education Faculty //The American Journal of Social Science and Education Innovations. - 2021. - T. 3. - №. 06. - C. 79-83.
4. Xasanov, A. T., & Nishanbayev, S. O. (2023). YILLIK SIKLIDA YOSH BOKSCHILARNI MUSOBAQLARGA TAYYORLASHNI REJALASHTIRISH.

*O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 1312-1317.

5. Xasanov, A. T., & Muxamediyev, M. M. (2023). YOSH VOLEYBOLCHILARDA MAXSUS ISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 1027-1033.

6. Xasanov, A. T., & Xakimov, Q. M. (2023). YOSH FUTBOLCHILARNING TEZKOR-KUCHLILIK SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARADORLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 1040-1046.

7. Xasanov, A. T., & Tojiboyeva, G. X. (2023). KOORDINATSION QOBILIYAT VA HARAKAT ANIQLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MUVOZANAT SAQLASH BARQARORLIGINING SAMARADORLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 1276-1282.

8. Хасанов, А. Т. СОЦІАЛЬНІ КОМУНІКАЦІЇ СОЦІОЛОГІЧЕСКІЕ ІССЛЕДОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Контактна інформація організаційного комітету конференції*, 74, 73.

9. Xasanov, A. T. (2023). YOSH VOLEYBOLCHILARNI JISMONIY TAYYORLASHDA TIZIMLI YONDASHUVNING SAMARADORLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 1021-1026.

10. Xasanov, A. T., & Anvarov, D. M. (2023). YOSH SUZUVCHILARDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 1283-1289.

11. Хасанов, А. Т. (2018). Экспериментальное обоснование акцентированных занятий по физическому воспитанию студентов факультета " Допризывное военное образование". In *Педагогика сегодня: проблемы и решения* (pp. 59-61).

12. Tursinovich, K. A., Mirzaakhmadovna, M. F., & Alijonovich, E. T. (2022). "Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 253-255.

13. Хасанов, А. Т., & Азимов, А. М. (2022). МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗРАБОТКЕ ПРОФЕССИОГРАММЫ УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ. *ЎЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 449-455.

14. Khasanov, A. T., & Azimov, A. M. (2023). Development of physical fitness of students based on new pedagogical technologies. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 17, 57-62.

15. Solijonovich, S. J., & Xasanov, A. T. (2023). KASB-HUNAR MAKTABIDA VOLEYBOL SEKTSIYASI ISHINI TASHKILLASH SAMARADORLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 117-122.



16. Khasanov, A. T., Kurbanov, G. R., & Mamatov, U. E. (2022). Experimental substantiation of efficiency accented physical education classes students of the faculty of “Military education”. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10)*, 157-164.
17. Tursinovich, H. A., Ibrokhimovich, A. E., & Tavakkalovich, A. D. (2022). Features of the interdependence of indicators of physical status of students of I-IV stages of military education faculties. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7*, 58-61.
18. Hasanov, A. (2022). Primary school students training movement games in physical education classes: primary school students training movement games in physical education classes. *Физическое воспитание, спорт и здоровье, 2(2)*.
19. Hasanov, A. T., Akzamov, S. D., & Abduraimov, D. T. (2022). Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10)*, 148-156.
20. Baxodirovna, X. B. (2024). THE IMPACT OF RHYTHMIC GYMNASTICS ON THE PHYSICAL HEALTH AND DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *International journal of advanced research in education, technology and management, 3(3)*, 191-196.
21. Xaitbayeva, B. (2024). THE ROLE AND METHODS OF TEACHING RHYTHMIC GYMNASTICS IN SCHOOL PHYSICAL EDUCATION. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(1)*, 23-26.
22. Xaitbayeva, B. (2024). RHYTHMIC GYMNASTICS: INTEGRATION INTO THE PHYSICAL EDUCATION CURRICULUM. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(1)*, 15-18.